



NAMANGAN SHAHRI URBANOFLORASINING YETAKCHI TURKUMLAR SPEKTRIDA POACEAE VA CYPERACEAE OILA TURKUMI YETAKCHILIGI.

Mutalibxonova Munisxon Faxriddinxon qizi

Namangan Davlat Universiteti ,Magistr

mutalibxonovamunisxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ilk marotaba Namangan shahar urbanoflorasidagi bir urug‘pallali o‘simliklarning 8 oila, 39 turkumga mansub 59 turdan iborat taksonomik tarkibini aniqlandi. Aniqlangan turlar asosan gemikriptofit va terofit hayotiy shakliga mansub. Mazkur ma‘lumotlar Namangan shahar o‘simliklari davlat kadastrini yaratish uchun xizmat qiladi. Aniqlangan turlar orasida Poaceae , Cyperaceae muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yetakchi oilalar spektri sinantrop muhit florasi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi dominantligi hududning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi.*

Kalit so‘zlar: Poaceae oilasi ,Cyperaceae oilasi,florogenez davri, gemikriptofit,terofit,avtohton,allohton tendensiyalari,snantrop muhit,oilalar spektri,turkumlar spektri.

Annotation: *For the first time, the taxonomic composition of monocotyledonous plants in the urban flora of Namangan was determined, consisting of 59 species belonging to 8 families and 39 orders. The identified species mainly belong to the hemicryptophyte and therophyte life forms. This information will serve to create a state cadastre of Namangan urban plants. Among the identified species, it was determined that Poaceae and Cyperaceae are of great importance. The spectrum of the leading families embodies the characteristics of the flora of the synanthropic environment. The dominance of the Poaceae and Cyperaceae families in the spectrum of leading genera of urban flora is expressed by the specific characteristics of the area.*

Keywords: Poaceae family, Cyperaceae family, florogenesis period, hemicryptophyte, therophyte, autochthonous, allochthonous trends, synanthropic environment, spectrum of families, spectrum of genera.

Аннотация: *Впервые определен таксономический состав однодольных растений городской флоры Намангана, состоящий из 59 видов, относящихся к 8 семействам и 39 порядкам. Выявленные виды в основном относятся к гемикриптофитным и терофитным жизненным формам. Эта информация послужит для создания государственного кадастра городских растений Намангана. Среди выявленных видов особое значение имеют Poaceae и Cyperaceae. Спектр ведущих семейств воплощает особенности флоры синантропной среды. Доминирование семейств Poaceae и Cyperaceae в спектре ведущих родов городской флоры выражено специфическими особенностями местности.*

Ключевые слова: семейство Poaceae, семейство Cyperaceae, период флорогенеза,


гемикриптофит, терофит, автохтонный, аллохтонный тренды, синантропная среда, спектр семейств, спектр родов.

Namangan shahri urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi yetakchiligi hududning xos xususiyatlari bilan ifodalansa, ularning uchrash maydonlari asosan sernam hududlarda qayd etildi (2.2-rasm).

A.I. Tolmachev fikriga ko'ra, o'simlik dunyosidagi turlar sonining turkumlar soniga nisbati flora rivojlanishining avtohton va allohton tendensiyalari ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, turkumdagi turlarning o'rtacha soni qancha ko'p bo'lsa, florada avtohton jarayonlar shunchalik kuchli namoyon bo'ladi va aksincha, bu ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, florogenez davrida turlarning migratsiyasining roli shunchalik katta bo'ladi.


2011-yilda Yu.Postarnak, S.A.Litvinskaya tomonidan Rossiya Federatsiyasining Krasnodar shahri urbanoflorasini ustida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijasida shahar urbanoflorasi tarkibida 76 oila, 303 turkumga mansub 713 tur ro'yxatga olingan bo'lib, shulardan Poaceae oilasining vakillari 60 tur bilan umumiy floraning 8,46% tashkil qilishi keltirilgan, shu bilan birga polimorf oilalar qatorida keltirilgan.

Namangan shahar urbanofloradagi bir urug'pallali o'simliklarni hayotiy shakllar bo'yicha ko'rsatkichi tahlil etildi va aniqlangan 59 turning 31 turi gemikriptofit, 28 tur terofit hayotiy shakliga mansub. Namangan shaharning katta hududi shaharsozlik maqsadida ikkilamchi qayta o'zlashtirilgan va o'zgartirilgan hududlar hisoblanadi. Shahar hududini ko'kalamzorlashtirish maqsadida asosan chim ekilgan bo'lib, bu o'simlik urug'lari bilan birga boshqa bir urug'pallali o'simliklar urug'lari ham qo'shilib qoladi. Namangan shaharning deyarli barcha hududlarida boshqoq hosil qiladigan o'simliklarni uchratish mumkin. Ularning ko'p vakillari begona turlar hisoblanadi. Aniqlangan taksonomik tarkibda gemikriptofit (ko'p yillik) guruhning ustunlik qilishi ularning boshqa iqlimlashtirilgan va manzarali hamda ko'kalamzorlashtirishda foydalanib kelinayotgan turli dekorativ o'simliklar orasida uchrase, piyozlari va tugunaklarini tuproq ostida saqlanishi, shaharning ko'kalamzorlashtirilgan hududlarida doimo sug'orish ishlarini amalga oshirilishi esa ularning doimiy o'sishi va nasl qoldirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



1.1-Rasm. Namangan shahar urbanofloradagi bir urug'pallali o'simliklarni hayotiy shakllar bo'yicha ko'rsatkichi (Raunker, 1934).

Namangan shahar hududida boshqa bir urug'pallali o'simliklar va *Tulipa*, *Gagea* va boshqa piyozli hamda tugunakli efemer o'simliklarni uchratish qiyin, ularni asosan shahar hududidagi qabristonlardagi tabiiy landshaftlarda uchratish mumkin.



Rasm Urug'pallalilarning yetakchi turkumlari spektri



Poaceae Barnhart.


Arundo donax L.

Dastlab qayd etilgan manbaasi. First published in Sp. Pl.: 81 (1753).

Tarqalishi. G'arbiy Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, O'rta Yer dengizi.

Hayotiy shakli va ahamiyati. Terofit (geofit), atrof-muhit va ijtimoiy maqsadlarda, hayvonlarning oziq-ovqatlari va dori-darmonlari, yoqilg'i va oziq-ovqat uchun ishlatiladi.

Fenologiyasi. Gullash davri; IV-V, Mevalash davri; V-VI. (2.5-Rasm; Izoh. Tabiiy maydonlar - yashill; introduksiya qilingan hududlar - pushti rang bilan belgilangan)



3.1-Rasm. <https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:390837>


Cyperus difformis L.

Dastlab qayd etilgan manbaasi. First published in Cent. Pl. II: 6 (1756).

Tarqalishi. Tropik va subtropik qadimgi dunyo (2.51-rasm).

Hayotiy shakli va ahamiyati. Terofit, hayvonlarning oziq-ovqatlari va dori-darmonlari, ekologik maqsadlarda, yem-xashak sifatida foydalaniladi.

Fenologiyasi. Gullash davri; IV-V, Mevalash davri; V-VI.



4.1-Rasm. <https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:304311>

Cyperus iria L.

Dastlab qayd etilgan manbaasi. First published in Sp. Pl.: 45 (1753).

Tarqalishi. Tropik va subtropik qadimgi dunyo va Markaziy Osiyo (2.52-rasm).

Hayotiy shakli va ahamiyati. Terofit, hayvonlarning oziq-ovqatlari va dori-darmonlari, ekologik maqsadlarda, yem-xashak sifatida foydalaniladi.

Fenologiyasi. Gullash davri; IV-V, Mevalash davri; V-VI.



4.1-Rasm <https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:304844>

Bugungi kunda aniqlangan turlar orasida Poaceae , Cyperaceae muhim ahamiyatga ega ekanligi yetakchi oilalar spektri sinantrop muhit florasi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirganligidan darak beradi. Urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi dominantligi hududning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Namangan shahar urbanoflorasidagi bir urug‘pallalilari Krasnodar, Grozniy, Xarkov shaharlari urbanofloralari bilan taqqoslash natijasiga ko‘ra, ular orasida Poaceae oilasi yetakchilik qilishi aniqlandi. Ular shahar florasi tarkibida ruderal, partov yerlar, yo‘l, ariq bo‘ylari, gulzorlar va ekin maydonlarida keng uchrashi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Tojibaev K.Sh., H.K. Esanov (2021). Current state of study of invasive Species of Uzbekistan. Biological Research. 2021/8 (60) 5-15.
- 2.Raunkier C. The life form of plants and statistical plant geography. – Oxford, 1934. 632 p
- 3.Xoshimov X.R. “Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining florasi”. Dissertatsiya. Biologiya., PhD., Toshkent- 2023.
- 4.Sennikov AN, Tojibaev KSh, Beshko NYu, Esanov HK, Jenna Wong L, Pagad S (2020) Global Register of Introduced and Invasive Species – Uzbekistan.
- 5.Invasive Species Specialist Group ISSG. Checklist dataset, <https://doi.org/10.15468/m5vdkw>.
- 6.Аримов Ф.И. Фарғона водийсининг бир уруғпаллали геофитлари: Биол. фан. докт. дисс. – Ташкент: 2016. – 156 с.
7. <https://www.plantarium.ru>